


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 139,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 109,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-oktabr oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1 641,9 mlrd. so'mga oshdi.




**2019 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>9 139,0</b>	<b>109,8</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	540,9	112,2
moliyaviy xizmatlar	1 300,2	159,9
transport xizmatlari	1 930,7	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 793,9	101,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	234,6	101,3
savdo xizmatlari	2 928,5	103,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	283,6	103,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	385,0	102,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	184,2	106,7
ijara xizmatlari	255,0	103,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	273,5	101,8
shaxsiy xizmatlar	477,4	102,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	99,7	108,0
boshqa xizmatlar	245,7	99,5

Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (159,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (108,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi (106,7 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### 2019 yil yanvar-oktabr oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 2 928,5 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 1 930,7 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 1 300,2 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 540,9 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 234,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 27,1 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 207,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-oktabr oylarida xizmatlar tarkibi  
(jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,1 %), transport xizmatlari (21,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %), shaxsiy xizmatlar (5,2 %), hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,2 %) tashkil etadi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %**



2019 yil yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1 930,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1 793,9 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,9 % tashkil etadi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %**



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (159,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,2 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (108,0 %), hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>9 139,0</b>	<b>109,8</b>
Farg'ona sh.	4 229,6	114,3
Qo'qon sh.	1 224,5	111,0
Quvasoy sh.	143,9	106,2
Marg'ilon sh.	941,3	109,2
Oltiariq t.	229,5	102,5
Qo'shtepa t.	131,6	101,4
Bag'dod t.	180,8	102,4
Buvayda t.	182,1	102,9
Beshariq t.	192,7	103,1
Quva t.	202,3	102,6
Uchko'prik t.	242,4	102,6
Rishton t.	172,1	100,1
So'x t.	73,9	100,4
Toshloq t.	176,9	101,6
O'zbekiston t.	205,1	106,6
Farg'ona t.	249,7	106,6
Dang'ara t.	168,7	101,5
Furqat t.	81,2	100,5
Yozyovon t.	110,7	104,7



2019 yil yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (114,3 %), Qo'qon (111,0 %), Marg'ilon (109,2 %), shaharlarida hamda O'zbekiston (106,6 %), va Farg'ona (106,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**

*(jami hajmga nisbatan %)*



2019 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,3%), Qo'qon (13,4 %) va Marg'ilon (10,3 %), shaharlarida hamda Uchko'prik (2,7 %), Farg'ona tumanlarida (2,7 %) qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

71-230-87-28